

THE EFFECT OF GEOGRAPHICAL VIEWS ON THE WORLD ECONOMY AND POPULATION

Matsopoyeva Alo Quadrat qizi
2nd Year Student of Urgench State University.

Hayitova Onakhon Abdirim qizi
2nd Year Student of Urgench State University.

ABSTRACT

This article provides information on the world economy, world population, geographical views and the impact of geopolitical views on the world economy and population on the geopolitical views of H. Mackinder and A. Mexen.

Keywords: Geography, world economy, world population, research, regions of the world, resources.

INTRODUCTION

Jahon xo'jaligi geografiyasi — iqtisodiy va ijtimoiy geografiya sohasi, xalqaro geografik mehnat taqsimotining shakllanishi, mamlakatlarning ixtisoslashuvi, har xil ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukmron bo'lgan sharoitda dunyodagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti jahon xo'jaligini harakatlantiruvchi kuchi va negizidir. Jahon xo'jaligining geografik modeli 20-asr arafasida to'la-to'kis shakllanib bo'ldi. Uning rivojlanishi 20-asrning 1-yarmida ayrim hududlarni qamrab olinishi, mazkur asrning ikkinchi yarmida esa hududiy va ayniqsa tarmoqlar tarkibining takomillashtirilishi hisobiga amalga oshdi. Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida jahon xo'jaligi va o'ning tarmoqlari strukturasi sodir bo'layotgan keskin siljishlar Jaxon xo'jaligi geografiyada katta o'zgarishlar bo'lishiga olib kelmoqda. Shu bois Jaxon xo'jaligi geografiyadagi strukturali siljishlarni o'z vaqtida o'rganish nihoyatda muhimdir. Jahon xo'jaligining hozirgi vaqtdagi geografik modeli ko'ndanko'nga Murakkablashib bormoqda. Jahon xo'jaligi tarkibida 10 ta eng muhim va yirik markazlarni (Shim. Amerika, Yevropa, Yaponiya, Xitoy, Jan.-Sharqiy Osiyo, Braziliya, Jan.-G'arbiy Osiyo, Rossiya, Avstraliya va Hindiston) ajratish mumkin. Mana shu va b. mamlakatlar hamda regionlar doirasidagi va o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy mo'nosabatlarni, o'larga xos xususiyatlar va qonuniyatlarni aniqlab berish Jaxon xo'jaligi geografiya sinig muhim vazifasidir. Iqtisodiyotning ho'do'diy joylasho'viga ta'sir eto'vchi tabiiy (tabiiy sharoit va resurslar, tabiiy aloqa yo'llarining mavjudligi) va ijtimoiy-iqtisodiy (modsiy boyliklar i. ch. usullari, iqtisodiy geografik o'rni, mehnat resurslari, transport-iqtisodiy va b. iqtisodiy sharoitlar, texnik rivojlanish darajasi, sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi nisbat, milliy daromad darajasi va h. k.) omillar tadqiq qilinadi va ular bilan bog'liq muammolarni hal etish yo'llari izlanadi. Jaxon xo'jaligi geografiya 2 qismdan iborat bo'lib, birinchi — asosiy qismi mo'him tushunchalar, tamoyillar, qonuniyatlar hamda dunyo regionlari va ayrim mamlakatlar miqyosida iqtisodiy salohiyatni belgilab beruvchi resurslar va omillar sistemasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi — regional mamlakatsho'noslik qismida Do'nyo miqyosida iqtisodiy-siyosiy vaziyatni belgilab beruvchi

regionlar hamda ayrim iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning majmuali iqtisodiy-ijtimoiy holati o'rganiladi. Shuningdek, dunyo miqyosida aholisining soni, hududining kattaligi, ya'ni iqtisodiy salohiyati ulkan bo'lgan davlatlar ham mavjud. Ayrim mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi tavsifi, ularning geografik o'rni, tabiiy resurs omillari, aholisi va mehnat resurslari, xo'jaligi, ichki tafovuglari hamda tashqi iqtisodiy aloqalari bo'yicha mavjud ma'lumotlarga asoslanadi.

Jaxon xo'jaligi geografiya iqtisodiy qonuniyatlarga amal qilgan holdagina mamlakatlar va regionlarga ularga xos tarmoqlar va hududiy tarkiblarni global, regional va ayrim davlatlar miqyosida haqqoniy tadqiq etish vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Jaxon xo'jaligi geografiyada har bir mamlakatning dunyo iqtisodiyoti va siyosatida tutgan o'rni va rolini baholashga muhim ahamiyat berilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi jahon xo'jaligi strukturasi sanoat (paxta tolasi, avtomobillar, samolyotlar, elektr energiya, tabiiy gaz, rangli, nodir va qimmatbaho metallar, qurilish xom ashyosi va b.) va qishloq xo'jaligi (paxta va qorako'l terisi, sabzavot, meva va uzum, poliz ekinlari va b.) mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetishtirishda muayyan mavqega ega.

Aholi – Yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson) lar majmui. Aholini tadqiq etish bilan maxsus fan – Demografiya shug'ullanadi. Aholi o'rtasida sodir bo'layotgan jarayonlar biologik, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirining natijasidir. Lekin Aholi rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sirni ijtimoiy-iqtisodiy omillar ko'rsatadi. Aholi muammolari odamlarning biologik xususiyatlari, insonlarning atrof muhit bilan o'zaro alokasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq. Chunki aholining mehnatga yarakli qismi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Aholini ilmiy va muntazam o'rganish o'rta asrlardan boshlangan. Ani hisobga olish Yevropa va Amerikada 19-asrda, qolgan regionlarda 20-asrning dastlabki choragida yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda aholi haqidagi statistik ma'lumotlar 19-asr 2-yarmidan boshlab mavjud. Respublikada aholi muammolarini o'rganish 1960–1970-yillardan boshlab tez rivojlandi. Aholini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar qatorini – uning takror barpo qilinishi (tug'ilish, o'lim, nikohga kirish, ajralish, tabiiy o'sish), joylanishi, urbanizatsiyasi, migratsiyasi, yosh jinsiy tarkibi va oilaviy holati, ma'lumot darajasi, irqiy, til, etnik, diniy tarkibi tashkil etadi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlarga uning bandligi, iqtisodiy faolligi, kasb-hunari va boshqa kiradi. Jahon aholisining soni uning joydan joyga tabiiy ko'chishi bilan bog'liq. Ayrim mamlakatlar, regionlar, shaharlar tabiiy Aholisining soni esa tabiiy ko'payish ko'rsatkichlaridan tashqari migratsiya jarayonlariga ham bog'liq. Jahon Aholisining soni, uning ko'payish sur'ati har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatga egadir va bu xususiyat muayyan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan bog'liq. Ayrim mamlakatlar, regionlar, shaharlar Aholisining soniga tabiiy ko'payishdan tashqari migratsiya jarayoni ham ta'sir etadi. Yer shari Aholisining soni va uning o'sish sur'atlari umuman uzluksiz ravishda ortmoqda. Aholi Faqat ayrim joylarda va ba'zi bir davrlarda urushlar, epidemiyalar, tabiiy ofatlar natijasida aholi o'sish sur'atlarining vaqtincha pasayishi, uning mutlaq sonining esa qisqarishi kuzatilgan. Aholi sonining o'sish sur'atlari nisbatan yuqori darajadagi tug'ilish va past darajadagi o'lim ta'sirida shakllanmoqda. Aholi 1995-yil Yer shari Aholisi tug'ilishining umumiy koeffitsiyenti (har 1000 aholiga nisbatan tug'ilganlar soni) 24,0 % ni, o'limning umumiy koeffitsiyenti (har 1000 aholiga nisbatan o'lganlar soni) 9 % ni tashkil etdi. O'sha yili Afrika mamlakatlarida

tugʻilishning umumiy koeffitsiyenti 41 % ga teng boʻldi. Oʻlimning umumiy koeffitsiyenti Osiyoda 8 % ni, Yevropada esa 11 % ni tashkil etdi. Yer shari Aholisining muntazam koʻpayib borishi Aholining oʻrtacha umr koʻrishi bilan ham bogʻlikdir. 1995-yilda Aholining oʻrtacha umr davri Yevropada 74 yosh, Osiyoda 65 yosh, Shimoliy Amerikada 75 yoshni, Janubiy Amerikada 68 yosh, Afrikada 54 yosh, Avstraliya va Okeaniyada 73 yoshni tashkil etdi. Dunyoda aholining oʻrtacha umr davri yuqori boʻlgan mamlakatlar qatoriga Yaponiya (79 yosh), Shvetsiya, Shveytsariya, Avstraliya, Kanada, Fransiya (78 yosh), Gretsiya, Niderlandlar, Ispaniya, Italiya, Isroil, Belgiya (77 yosh), Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh (76 yosh) kiradi. Geosiyosiy gʻoyalarning rivojlanishida ikki yoʻnalish muhim oʻrin egallaydi. Birinchi yoʻnalish Angliya-Amerika yoʻnalishi deb ataladi. Mazkur yoʻnalishda asosiy eʼtibor dunyoviy (global) geostrategik konsepsiyalar tuzishga qaratiladi. Mazkur konsepsiyada dengiz va quruqlik hududlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar va aloqalar, ularning tarkibi va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ikkinchi yoʻnalish — kontinental (quruqlik) yoʻnalishi deb ataladi. XX asrning 40-50-yillarida Germaniya va Fransiya oʻzining eng yuqori darajadagi rivojlanish nuqtasiga yetdi. Mazkur yoʻnalish Yevropa-sentrizim, regional (mintaqaviylik) xususiyatlari bilan ajralib turadi va Yevropa davlatlari ichidagi integratsiya muammolarini oʻrganishga alohida eʼtibor beradi. Birinchi dunyoviy (global) model Angliyada X. Makinder (1861—1947) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1914-yilda Buyuk Britaniya Qirollik geografiya jamiyatida «Tarixning geografik oʻqi» deb nomlangan maʼruzasida «jahon siyosatining oʻq mintaqalari» gʻoyasini ilgari surdi. Davlat uchun eng qulay geografik oʻrin oʻrtada, markazda, planetar nuqtayi nazaridan esa dunyo markazida joylashganligi bilan asoslanadi. Dunyo markazida Yevrosiyo kontinenti mavjudligi ilmiy jihatdan isbotlab berilgan. Yevrosiyo jami dunyo ustidan nazorat qilish uchun juda qulay kontinentdir. Makinder oʻzining 1919-yilda nashr qilingan «Demokratik ideal va reallik» nomli kitobida «oʻq mintaqa»ni Xartlend deb atadi. Bu «oʻq mintaqa»ga Rossiyani, gʻarbda Sharqiy va Markaziy Yevropa, sharqda esa Tibet va Moʻgʻulistonni kiritdi. Makinder fikriga koʻra, dengizning kuch-qudrati jahondagi kuch-lar balansida juda katta ahamiyatga ega boʻlsa ham, quruqlik va havodagi kommunikatsiyalarning rivojlantirilishi dengiz kuch-qudrati samaradorligining pasayishiga sabab boʻladi. Shuning uchun ham Makinder: «Dunyoga hukmdorlik qilishda kontinental (quruqlik) davlatlarning imkoniyatlari behisobdir», - deb taʼkidlagan. AQSHning qudratli davlatga aylanishi Makinder konsepsiyasini qayta koʻrib chiqishga va «Atlantizm» geosiyosat gʻoyasining shakllanishiga sabab boʻldi. Bunda A. Mexen (1840-1914) gʻoyalari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. U «Tarixda dengiz kuchlari» va boshqa qator asarlarida «dengiz kuchlari» tushunchasi asosida geosiyosat konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bunda erkin dengiz savdosi bilan shugʻullanish A. Mexen gʻoyasining asosini tashkil qiladi. A. Mexen AQSH «dengiz taqdiri»ga ega, buning nati-jasida u avval Amerika qitʼasida, keyinchalik esa butun dunyoda hukmdorlik qiladi, deb hisoblagan. A. Mexenning geosiyosiy gʻoyalari toʻliq holda XX asr mobaynida AQSHda hayotga tatbiq etildi va yuqori darajada oʻzining samarasini berdi. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) astronomiya, geodeziya, fizika, geografiya mineralogiya, kartografiya, iqlimshunoslik, tarix va koʻplab ijtimoiy fanlarga oid 150 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan. U 973-yil Xorazmning qadimiy poytaxti Kot shahrida tugʻilgan, 17 yoshidan astronomiya bilan shugʻullana boshlagan. 20-21 yoshida matematik geografiyaga oid kashfiyotlar qilgan (masalan, ekliptika tekisligining ekvatorga nisbatan qiyaligini aniqlagan). 22 yoshida globus

yasagan, unga Abu Nasr ibn Iroq Mansur ustozlik qilgan. Lekin Xorazmda turli noxush siyosiy vaziyatlar tufayli u yurtidan ketishga majbur bo'ladi. 998-yil Kaspiy dengizi janubidagi Jurjon shahriga keladi va bu yerda o'zining ikkinchi ustozini Abu Sahl Masixiy bilan uchrashadi. 1000-yilda uni mashhur qilgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini yozadi. Bu asar xronologik asar bo'lib, unda turli tildagi turli xalqlarning bayramlari, calendar sistemalari hamda madaniy-ma'rifiy hayoti haqida ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. 1017-yil Mahmud G'aznaviy Xorazmni egallagach, boshqalar qatori Beruniyning ham G'azn shahriga olib ketadi. Shoh G'aznaviyning Hindistonga qilgan safarlarida maslahatchi va diplomat vazifasini bajargan, 1030-yil "Hindiston" nomli fundamental asar yozadi. Asarda juda qimmatli ma'lumotlar bo'lganligi bilan nafaqat o'rta asr davridagi olimlar, bugungi olimlarning ham e'tiborida bo'lib kelmoqda. Akademik V.P.Rozen "G'arb va Sharqning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q" deb ta'kidlagan edi. Hajmi juda katta, rang-barang mavzu va mazmundagi bu asarda hindlarning falsafasi, geografiyasi, etnografik merosi, urf-odatlarini, yozuvi kabi jihatlarga katta e'tibor berilgan. Mahmud G'aznaviyning o'g'li Ma'sud humronligi davrida erkin ijod qilish huquqiga ega bo'lgan Beruniyning uning sharafiga "Qonuni Ma'sudiy" ya'ni "Ma'sud qonuni" nomli astronomik asar yozgan. Ajoyib ensiklopedist olim 1048-yil G'aznada vafot etgan. Ma'lumki, olim bu davrgacha ko'p ishlarni amalga oshirdi, uning qarashlari, fikrlari faqat O'rta Osiyo haqidagina emas, balki butun geografiyaga bag'ishlangan edi. Shuning uchun ham XI–XII asrlarni "Beruniy asri" deb atashadi. Uning geografiyaga oid asarlari 20 dan ortadi, shundan 16 tasi bizgacha yetib kelmagan. Masalan, faqat nomigina yetib kelgan asarlari quyidagilar:

1. "Yerning obod qismlaridagi kenglik va uzoqlikni aniqlash haqida bir maqola"
2. "Tog' tepasida turib ufq pastligini kuzatish orqali atrofdagi yerlarning kattaligini aniqlash haqida maqola"
3. "Olamdagi mavjud isitish sabablarining sifati va yil fasllarining turlichaligi haqida"
4. "Toshlar haqida kitob"
5. "Iqlimlarning taqsimlanishi haqida kitob" va boshqalar. Olimning bizgacha yetib kelgan va ilmiy geografik ahamiyatini hanuzgacha yo'qotmagan asarlari: "Osori boqiya", "Kartografiya", "Geodeziya", "Hindiston", "At-Tahfim", "Qonuni Ma'sudiy", "Mineralogiya" va "Saydana" dan iborat. "Osori boqiya" asarida asosan iqlim va ob-havo haqida tasavvurni oshiradi. Ob-havo elementlari va hattoki iqlimning o'ziga ham to'la to'kis ta'rif beradi. "Aniqki, yog'in qishda ko'proq yog'adi, yozda kamroq, tog'larda ko'proq, tekisliklarda kamroq" deb yozadi shu asarning 287-sahifasida mavjud. Ob-havo haqidagi bunday real fikrlar "At-Tahfim"da ham ko'p uchraydi. Beruniyning ikkinchi yirik geografik asari "Kitobu fi tasxih as-suvor va tabtix al-quvor" ya'ni "Kartalar va yer yuzasini bilish kitobi" ni biz "Kartografiya" deb ataymiz. Aslida bu asarda bir necha fanlar birgalikda bir-biri bilan uyg'unlashib ketadi. U dastlab bu bilimlarning ilmiy va nazariy tomonlarini asoslaydi va gradus to'ri, kartografik proyeksiyalar, astronomic asboblar va ulardan foydalanish bo'yicha ko'plab fikrlarni bildirib o'tgan. "Geodeziya" (to'liq nomi "Kitobu tahdidi nihoyat ul-amokin li tashihi masofot ul-masokin" ya'ni "Turar joylarning oralaridagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash haqida kitob") da geodezik bilimlardan tashqari, Xorazm geografiyasiga, xususan gidrologiyasiga e'tibor bergan. Olimning Amudaryo etaklari, Qizilqum, Qoraqum haqidagi ilmiy mulohazalaridan quyidagi xulosalar kelib chiqqan: 1) butun yer yuzi

tabiati singari, Amudaryo, Qizilqum va Qoraqum vohasi geologiyasi ham davrlar davomida o'zgarib kelgan. Quruqlik suv bilan, suvlik quruqlik bilan almanishib turgan 2) quruqlikda dengiz hayvonlari qoldiqlarini uchratish, bu yer avval suvlik bo'lganidan dalolat. Bu o'zgarishlarni ikki asosiy manbai bor - bir tomondan, yerni ichki kuchlari ta'sirida tog'larni ko'tarilishi, cho'kishi yoki yorilishi. Ikkinchidan, oqar suv va ko'llarning errozion ishi. Bu ikki kuch relief hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi 3) Qoraqumning katta qismi qadimgi Amudaryo oqizib keltirgan yumshoq jinslardan iborat alluvial tekislikdir 4) daryolar migratsiyasi, ya'ni o'zani yo'nalishini o'zgartirib turishini Amudaryo misolida ko'rish mumkin 5) daryo o'zanini yo'nalishini o'zgarishi juda katta ahamiyatga ega. Tabiiy geografiya va paleogeografiyaga oid bunday fikrlar "Hindiston" asarida ham uchraydi. U shu asarida XI asrdayoq o'zan oqimida jinslarning o'ziga xos tarqalish va to'planish qonuniyatlarini topadi. Bu qonuniyatga ko'ra, suv oqimi bo'ylab yotqizilgan cho'kindi jinslarning katta-kichikligi suv oqimining kuchiga to'g'ri proporsionaldir ya'ni oqim qancha kuchli bo'lsa, shuncha katta jinslar oqadi yoki aksincha. U Hind-Gang pasttekisligi avval dengiz ostida bo'lgani va keyinchalik quruqlikka aylangani haqida fikr yuritadi. Uning oqar suvlar keltirgan cho'kindilar to'planishidagi uch bosqich haqidagi ta'limotini O'zFA akademigi Popovning fatsial-paragenitik mintaqalar to'g'risidagi xulosalari ham tasdiqlaydi. Beruniyning geologic va paleogeografik ta'limotlarida metodologik ahamiyatga molik g'oyalar ham mavjud. U ilk bor tabiat rivojidagi aktualizm g'oyasini ilgari surdi. Vaholangki bu g'oya mustaqil ravishda XVIII asrda rus olimi Lomonosov tomonidan amalga oshirildi va XIX asrda Lyayel tomonidan asoslab berildi. "Mineralogiya" asari ham ahamiyatga molik. Unda o'sha davrgacha bo'lgan foydali qazilmalar haqida fikr yuritilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Muallif foydali qazilmalar koni joylashgan hudud haqida ma'lumot berish bilan cheklanmay o'sha hududlar geologiyasi va geografiyasiga ham to'xtalib o'tgan. Asarning birinchi qismida 40dan ortiq qazilma va organik moddalarni aniqlash haqida gapirib o'tilgan. Ularni aniqlashda qattiqligi, siniqligiga katta e'tibor bergan. U fanda birinchi bo'lib minerallarning solishtirma og'irligini aniqlashga harakat qilgan, uni aniqlashda sof oltinni etalon qilib olgan. Biz Beruniyning faqat geografiya va tabiiy fanlarga qo'shgan hissasi haqida gapirdik xolos. Aslida bu olim fanning turli sohalarida faoliyat yuritib ko'plab yutuqlarga erishgan. Fransuz Sarton XI asrni "Beruniy asri" deb atashi bejiz emas, chunki u barcha fanlarda turli yangiliklar, tekshiruvlar olib brogan. Shuning uchun ham sharqda uyg'onish davrining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan alloma nomiga turli mukofotlar, oliy o'quv yurtlari, ko'chalar, maktablar nomi qo'yilgan. Zero, buyuklar nomi mangulikka dahldordir. Xulosa qilib aytganda Jahon xo'jaligi geografiyasi — iqtisodiy va ijtimoiy geogr. sohasi, xalqaro geografik mehnat taqsimotining shakllanishi, mamlakatlarning ixtisoslashuvi, har xil ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukmron bo'lgan sharoitda dunyodagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. www.ziyonet.uz
2. Z.Tojiyeva. Aholi geografiyasi.
3. B.A. Bahritdinov, S.A. Zakirova G.A. Abdurahimova, S.E. A'zam
4. J a h o n i j t i m o i y - i q t i s o d i y g e o g r a f i y a s i.
5. De Blij H. J., Muler P. Geography, Regions and Concepts. John Wiley & Sons, 1997.